TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAYDAROV ILXOM UTKUROVICH

KLASTER TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TO'QIMACHILIK SANOATINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti"

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 334.021.001.76:677

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертатсии доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAYDAROV ILXOM UTKUROVICH

KLASTER TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TO'QIMACHILIK SANOATINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti"

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt3988 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Maxmudov Nosir Maxmudovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xakimov Ziyodylla Axmadovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Davronov Orzu Abdujabborovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "07" 04 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (165 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72); faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "06" 16 kuni tarqatildi.

(2025 yil "06" 16 dagi 28-raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.E.Sindarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S.Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

T.S.Qo'chqorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon bozorida globallashuvning yanada chuqurlashuvi natijasida global qo'shilgan qiymat zanjiriga samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni samarali tashkil etishda klaster tizimini qo'llashga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Yevropa Klaster Komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra Yevropadagi 3000 dan ortiq kuchli klasterlarda jami 54 million ish o'rinlari mavjud bo'lib, mintaqadagi ishchi kuchining 45 foizini tashkil etadi. Osiyo mamlakatlarida klasterlar shakllanishi jarayoni faol davom etmoqda. Xususan, Xitoyda 35 million ishchiga ega 60 dan ortiq maxsus sanoat klaster zonalari mavjud[1]. Jahon mamlakatlarida yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va sinergiya samarasini ta'minlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida klasterlar infratuzilmasini takomillashtirish, ularning salohiyati va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda to'qimachilik korxonalarida klaster tizimi samaradorligini ta'minlashda tejamkor texnologiyalarni qo'llash, innovatsiyalarni keng joriy etish, strategik rivojlanishni prognozlash, resurslar muqobil taqsimotini amalga oshirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. To'qimachilik korxonalarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash asosida klaster tarkibiy tuzilmasini muqobillashtirish, ishlab chiqarishni muvozanatlashtirilgan holda rivojlantirish, xom ashyo muqobil tarkibini shakllantirish asosida xarajatlarni kamaytirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarining to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta'sirini baholash, innovatsion jarayonlarni kuchaytirish asosida tarmoq eksport salohiyatini oshirishni ta'minlash ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlardan sanaladi.

O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishda yetakchi sanoat tarmoqlari salohiyatidan samarali foydalanish uchun klaster strategiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. To'qimachilik sanoatida klasterlash tizimini joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ushbu asosda sanoatning eksport salohiyatini oshirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1-may 2024-yildagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida "Respublikani to'qimachilik habi"ga aylantirish va kamida xalqaro darajada tan olingan 10 ta mahalliy brendlarni yaratish ustida ishlarni manzilli tashkil etish, korxonalarga ichki va tashqi bozorlarda o'z mahsulotlarini sotishga ko'maklashish bo'yicha samarali va manzilli choralarni ko'rib borish" vazifalari belgilab berilgan[2]. Mazkur vazifalarni samarali ijrosini ta'minlashda paxta-to'qimachilik klasterlari raqamli transformatsiyaga mos holda, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan Sanoat 4.0 konsepsiyasi doirasida boshqarish, mavjud klasterlarning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish, qo'shimcha qiymat zanjiri bo'g'inlarining samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini baholashning

[1] http://www.clusterobservatory.eu/index.html.
[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1-may 2024-yildagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

zamonaviy indikatorlari va metodlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mazkur ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari O'zbekiston to'qimachilik sanoatining barqaror, yuqori texnologik va eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modelini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 31-martdagi PQ-253-son "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4453-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22-iyundagi 397-sonli "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 4-dekabrdagi 733-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda soha faoliyatiga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishida mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoat klasterlarini tashkil etish, uni boshqarishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik olimlar A.Marshall, Dj.K.Laft, E.M.Bergman, E.J.Fezer, O'.So'lvell, M.J.Enrigxt, S.A.Rozenfeld, M.Porter[3] va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

[3]Маршалл А. Принципы экономической науки / А. Маршалл. -М.: Изд. группа «Прогресс», 1993. - Т.3. - 351 с.; Лафт Дж. К. Теория организации: Учебное пособие. – М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2013. – 416 с.; Bergman E.M. and Feser E.J. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications / E. M. Bergman, E. J. Feser. Regionl Research Institute, WVU., 1999.; Sölvell Ö. Clusters. Balancing Evolutionary and Constructive Forces. Ivory Tower Publishers, 2008.; Enright M.J. (1996), 'Regional clusters and economic development: a research agenda; Rosenfeld S.A. Industrial-strength strategies: regional business clusters and public policy. - Washington, The Aspen Institute Community Strategies Group. - 1995. - 150 p.; Porter, M. E. Clusters of Innovation Initiative: Regional Foundations of U.S. Competitiveness. Washington, DC: Council on Competitiveness, 2005.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida klasterlar faoliyatini tashkil etish masalalari bilan V.A.Bespalov, D.A.Galimov, P.A.Kalinin, A.V.Babkina, Y.S.Artamonova, D.I.Strelsov, B.Z.Milner, D.M.Begov[4] va boshqalar shug'ullanishgan.

O'zbekistonda klasterlarni tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkiliy masalalari A.SH.Bekmuradov, D.M.Mirzaxalilova, K.Xonkeldiyeva, B.A.Davlyatov, G'.Zaxidov, A.Soliyev, Z.A.Xakimov[5] va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Shu bilan birga, klaster tizimini rivojlantirish asosida to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu holat mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi va ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti F1-161. "Xalqaro standartlarni joriy qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish uslubiyatini takomillashtirish" mavzusidagi fundamental (2017-2019 yy.) loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi klaster tizimini rivojlantirish asosida to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sanoat klasterlar mohiyati va ularni shakllantirish nazariy asoslarini o'rganish;

"paxta-to'qimachilik" klasteri infratuzilmasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va uni optimallashtirish tamoyillarini o'rganish;

"paxta-to'qimachilik" klasteri mahsulotlarini eksport qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish;

O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilish va baholash;

[4]Беспалов В.А. Механизмы создания и функционирования высокотехнологичных отраслевых кластеров: монография / В. А. Беспалов, В. Б. Леонтьев, Д. Б. Рыгалин и др.; ред. С. Г. Полякова. - М. : МИЭТ, 2010. -163 с.; Галимов Д.А. Кластеры: проблемы теории и практики: монография /Д. А. Галимов, В. Н. Клюковкин. - Бийск: Алтайс. гос. техн. ун-та, 2010. – 113 с.; Калинин П.А. Формирование инновационных отраслевых кластеров в регионе. Дисс. на соискание учёной степени к.э.н. – Киров, 2020. – 198 с.; Кластерная экономика и промышленная политика: теория и инструментарий: Монография / под ред. д-ра экон. наук, проф. А.В. Бабкина. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2015. – 588 с.; Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика: кол. монография / под. ред. Ю.С. Артамоновой, Б.Б. Хрусталева – Пенза: ПГУАС, 2013. – 230 с.; Стрельцов Д.И. Формирование инновационного территориального кластера промышленности строительных материалов [Текст]: дис… кан. экон. наук: Москва, 2015. – 24 с.; Мильнер Б.З. Теория организации: Учебник. –М.: ИНФРА-М, 2019. - 864 с.; Бегов Д.М. Эффективность формирования регионального хлопково-текстильного кластера (на материалах Согдийской области). [Текст]: авт. дис… кан. экон. наук: Душанбе, 2020. – 24 с.

[5]Бекмурадов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т., 2006. – 247 с.; Mirzaxalilova D.M. Povishenie konkurentosposobnosti tekstilnoy promishlennosti Uzbekistana na osnove klasterizasii. I.f.n. ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. - Tashkent: instituta ekonomiki an Ruz, 2012. – 24 s.; Xonkeldieva K.R. To'qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.Avtoref. - T.:TDIU, 2021. – 24 b.; Davlyatov B.A. Paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda klasterlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. - T.:TDTU, 2023. – 170 b.; Zaxidov G'. "O'zbekiston engil sanoatida ishlab chiqarishni Klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligi". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.Avtoref. - T.:TDIU, 2017. – 24 b.; Soliev A., Xakimov Z. Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari // "biznes-ekspert".- № 1. - 2014, - B.52-57.; Xakimov Z.A. To'qimachilik klasterlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. - T.:TDIU, 2023. – 48 b.

"paxta-to'qimachilik" klasteri tarkibiy tuzilmasi va eksport faoliyatini tahlil qilish;

"paxta-to'qimachilik" klasteri eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

klaster siyosatini amalga oshirishning xorij tajribasi va ularni O'zbekistonda qo'llash bo'yicha takliflar tayyorlash;

"paxta-to'qimachilik" klasteri infratuzilmasini optimallashtirish negizida eksport salohiyatini oshirish istiqbollarini aniqlash;

"paxta-to'qimachilik" klasteri eksport salohiyatini oshirishda diversifikatsiyalash siyosatini amalga oshirish samaradorligini oshirish va eksportni istiqbolli prognoz paramertlarini aniqlash;

klaster tizimini rivojlantirish asosida to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish bo`yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistondagi paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti klaster tizimini rivojlantirish asosida to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tanlab kuzatish, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, korrelyatsion-regression tahlil, omilli tahlil, simpleks usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta-to'qimachilik klasterlarining ichki imkoniyati, tashqi muvaffaqiyati va bozor salohiyatini namoyon etuvchi jamlanma ko'rsatkichlar asosida xisoblanadigan eksport salohiyati indiktorlari qiymatlarining "juda past" (0 – 0,125), "past" (0,126 – 0,250). "o'rta" (0,251-0,375), "yaxshi" (0,376-0,750) va "yuqori" (0,751-1,0) diapazonlari darajasida klasterning tarkibiy tuzilmasini shakllantiring asoslangan;

xorijiy investitsiyalar jalb etilishi, bozor/raqobat matritsasi, innovatsiya, moslashuvchanlik, kichik biznes, firma-lider kabi omillar yordamida baholash tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi uchun mos keladigan "paxta-to'qimachilik" klasterining samarali modelini tanlash asoslangan;

ekonometrik usul yordamida qo'shilgan qiymatni maksimallashtirish maqsad funksiyasini $L(x) = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{m} P_i * X_{ij} \rightarrow max$ ishlab chiqish va yechimini topish asosida paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etish samaradorligini optimallashtirishning samarali variantini tanlash asoslangan;

O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining 2025-2030-yillarda eksport hajmi ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar asosida uning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxta-to'qimachilik klasteri infratuzilmasining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini yanada oshirishda **Yevropa** Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus imtiyozlar tizimi (GSP+)dan foydalanishning yuqori imkoniyatlarini asoslangan;

paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini ularning ichki salohiyati, bozordagi muvaffaqiyati, mahalliy bozor salohiyati kabi omilga ko'ra baholashning mezon va indikatorlari taklif etilgan;

paxtachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik zanjiriga tayangan holda paxta-to'qimachilik klasterlarini toifalarga ajratish taklif etilgan;

qo'shilgan qiymatni maksimallashtirish maqsad funksiyasi asosida paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etish samaradorligini optimallashtirishning samarali variantini tanlash asoslangan;

paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritishining takomillashtirilgan tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan;

paxta-to'qimachilik klasterlarida diversifikatsiya strategiyasini qo'llash taklifi ishlab chiqilgan;

paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishini prognozlashning ekonometrik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning sanoat klasterlarini shakllantirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi, "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmalarining ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan ilmiy manbalar va amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini baholash usuli, paxtachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik zanjiriga tayangan holda paxta-to'qimachilik klasterlarini toifalarga ajratish, qo'shilgan qiymatni maksimallashtirish maqsad funksiyasini asosida paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etish samaradorligini optimallashtirishning samarali variantini tanlash, paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritishining takomillashtirilgan tarkibiy tuzilmasi, paxta-to'qimachilik klasterlarida diversifikatsiya strategiyasini qo'llash, paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishini prognozlashning ekonometrik modeli bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy g'oya va takliflar, uslubiy yo'llanmalar, boshqarish texnologiyalari va usullari hamda boshqa amaliy natijalar klasterlarini shakllantirish va ularni raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategik qarorlarni ishlab chiqishga yaqindan yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan xulosa va takliflarni hisobga olgan holda paxta-to'qimachilik klasterlarining mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanishda, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Klaster infratuzilmasini optimallashtirish asosida to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini baholashning tavsiya etilgan mezonlariga ko'ra foydalanish darajasi indikatorlarining "juda past" (0 – 0,125), "past" (0,126 – 0,250). "o'rta" (0,251-0,375), "yaxshi" (0,376-0,750) va "yuqori" (0,751-1,0) toifalari diapazonlarida taklif etilgan baholash usuli "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tarkibidagi paxta-to'qimachilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasining 2024-yil 18 sentyabrdagi 03/23-2494-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "ASAKA TEKSTIL" MCHJ paxta-to'qimachilik klasteri eksport salohiyati real integral ko'rsatkichi 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 5,6 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

xorijiy investitsiyalar jalb etilishi, bozor/raqobat matritsasi, innovatsiya, moslashuvchanlik, kichik biznes, firma-lider kabi omillar yordamida baholash tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi uchun mos keladigan "paxta-to'qimachilik" klasterining samarali modelini tanlash bo'yicha takliflar "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tarkibidagi paxta-to'qimachilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasining 2024-yil 18 sentyabrdagi 03/23-2494-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Fergana global textile" MCHJ paxta-to'qimachilik klasteri eksport hajmi 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 48,3 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

ekonometrik usul yordamida qo'shilgan qiymatni maksimallashtirish maqsad funksiyasini $L(x) = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{m} P_i * X_{ij} \rightarrow max$ ishlab chiqish va yechimini topish asosida paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etish samaradorligini optimallashtirishning samarali variantini tanlash bo'yicha takliflar "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tarkibidagi paxta-to'qimachilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasining 2024-yil 18 sentyabrdagi 03/23-2494-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Asaka tekstil" MCHJ paxta-to'qimachilik klasteri qo'shilgan qiymat miqdorini 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 8,9 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi eksport hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik modeli asosida paxta-to'qimachilik klasterlarining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan eksport hajmi prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasining 2024-yil 18 sentyabrdagi 03/23-2494-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining eksport hajmi 2025-2030-yillarda o'rtacha yiliga 4,42 foizga yoki 2030-yilda 2024-yilga nisbatan umumiy 1,58 barobarga oshishi bashorat qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsion tadqiqotning asosiy g'oyasi va natijalari ma'ruzalar shaklida 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma'qullangan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot hajmi 141 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Klaster tizimini rivojlantirish asosida to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirishning nazariy va amaliy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida sanoat klasterlarining mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganish, "paxta-to'qimachilik" klasteri infratuzilmasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va uni optimallashtirish tamoyillarini o'rganilgan, mahsulot eksport qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan, to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini yanada oshirishda Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus imtiyozlar tizimi (GSP+)dan foydalanishning yuqori imkoniyatlari aniqlangan.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi bir tomondan qo'shimcha qiymat yaratishning transmilliy "zanjirini" ko'zda tutgan holda, ikkinchi tarafdan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ham raqobatni kuchaytirmoqda. Globallashish asosida logistika va tovarlar hamda xizmatlar sifatini ham standartlashtirishni ta'minlovchi umumjahon kommunikatsiya tizimi ham rivojlanib bormoqda. Ishtirok etuvchi tomonlar o'zaro aloqasini samarali tashkil etishning eng samarali shakllaridan biri klasterlash sanaladi. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iborat. "Klaster" atamasi birinchi marta qiymat zanjirlari va institutlarining geografik konsentratsiyasini tavsiflash uchun faqat 1970-yillarda ishlatilgan. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti raqobatbardoshligini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirishda klaster tizimidan foydalanish yuqori samara beradi. Ayniqsa, respublika iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan sanalgan to'qimachilik sanoatning integratsiyalashuvi jarayonida klaster siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, klasterlash siyosatini samarali olib borishda uning huquqiy bazasini ishlab chiqish, uning tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish, ishlab chiqarish va eksport faoliyati samaradorligini baholash asosida istiqbolda rivojlanishini prognozlash, qo'shimcha qiymat zanjirini hosil qilishni yakuniy bosqichlarda olib borilishini tashkil etish zaruriy infratuzilma hamda moddiy-texnika ta'minotini yaratishga alohida e'tibor berilishi talab etilmoqda.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda "klaster" atamasiga mualliflar tomonidan ko'plab ta'riflar keltirilgan. Ushbu ta'rif va talqinlarda klaster - bu bir-birini to'ldiruvchi hamda alohida kompaniyalar va umuman klasterning raqobatdosh ustunliklarini kuchaytiruvchi asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, ixtisoslashtirilgan xizmatlar,

infratuzilma, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa tashkilotlar yetkazib beruvchilar, geografik jihatdan o'zaro bog'langan kompaniyalar guruhi sifatida tavsiflangan. Muallif fikrimizcha, "klasterlar – bu yagona muvofiqlashtiruvchi yadroga ega bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini hosil qiluvchi, iqtisodiy qiziqishlari bir butun bo'lgan korxonalar, firmalar va tashkilotlarning tuzilmaviy guruhidir".

Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etishdan asosiy maqsad – bu xomashyodan tortib pirovard tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish sanaladi. Korxonalarning eksportini rivojlantirish borasida O'zbekiston va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlarini qayd etgan holda, o'z yechimini topmagan masalalarni ham alohida ta'kidlab o'tish zarur. Shunday qilib, korxonaning eksport salohiyatini baholashda uning tarmoq xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmaydi, "paxta-to'qimachilik" klasterlari eksport salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish, bundan tashqari, to'qimachilik korxonasining eksport salohiyatini rivojlantirishni boshqarish vositalarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Dissertatsiyaning **"O'zbekistonda "paxta-to'qimachilik" klasterlarining eksport faoliyati va infratuzilmasi tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining hozirgi holati va uni rivojlantirish tendensiyasi holati tahlil qilingan, "paxta-to'qimachilik" klasteri tarkibiy tuzilmasini tahlil etish natijalariga tayanib uni takomillashtirish taklifini ishlab chiqish, eksport faoliyatini tahlil qilish asosida foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni aniqlangan. "Paxta-to'qimachilik" klasteri eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqish kabi masalalar o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarmoqlararo integratsiyani chuqurlashtirish, ishlab chiqarish zanjirlarini va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan klasterlash siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, paxta-to'qimachilik sanoati klasterlari bu borada muhim mexanizmlardan biri sifatida shakllanib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, ularni yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarga aylantirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2021-yilda respublika bo'yicha paxta xomashyosini yetishtirish uchun ajratilgan umumiy maydonlarning 15,9 foizi yoki 159098 gektari paxta-to'qimachilik klasterlari uchun ajratilgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ulush 16,9 foizni yoki 173014,6 gektarni tashkil etgan. 2023 hosil yilida jami 134 ta paxta-to'qimachilik klasteri hamda 51 ta kooperatsiya va urug'chilik xo'jaliklarida paxta yetishtirish uchun jami 1014,579 ming gektar maydonning 99,79 %i yoki 1012,436 ming gektari paxta-to'qimachilik klasterlariga tegishlidir. 2021 hosil yilda respublikada tayyorlangan umumiy paxta xomashyosining 20,67 foizi yoki 641887,9 tonnasi, 2022 hosil yilida 23,67 foizi yoki 789753 tonnasi paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan yetishtirilgan bo'lsa, 2023 hosil yilida esa bu ko'rsatkichning keskin oshishi ro'y bergan, ya'ni jami tayyorlangan paxta xomashyosining 99,54 foizi yoki 3783 423 tonnasi paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan yetishtirilgan.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlarida 2021-2023-yillarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishini tahlil qilish natijalari

shuni ko'rsatadiki, taqqoslama narxlarda tovvar mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2021-yilda 17901,7 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 28679,8 mlrd. so'mni tashkil etgan yoki 60,21 foizga oshishi ta'minlangan. Paxta-to'qimachilik klasterlarida xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish hajmi o'rganilayotgan davrda qariyb 3 barobarga oshib, 2023-yilda 7258,6 mlrd.so'mni tashkil etgan. Mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining bazis yilga nisbatan oshishi mahsulot turli bo'yicha quyidagicha bo'lgan: paxta tolasi 8,91 %, paxta kalava ipi 17,98 %, tayyor ip gazlama 48,0 %, trikotaj mato 43,60 %, tikuv-trikotaj mahsulotlari 86,34 %, paypoq mahsulotlari 41,75 %. Tarmoqda ishlovchilar soni 2021-yilda 112169 kishi tashkil etgan va ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 174654 kishigacha oshirilgan 1-jadval.

1- jadval

Paxta-to'qimachilik klasterlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va ishlovchilar soni dinamikasi[6]

№	Ko'rsatkichlar nomlanishi	O'lchov birligi	2021 y	2022 y	2023y
1.	**Taqqoslama narxlarda tovar mahsuloti hajmi**	**mlrd. so'm**	**17 901,7**	**23 852,1**	**28 679,8**
2.	**Xalq iste'mol mollari hajmi**	**mlrd. so'm**	**2 423,3**	**4 578,0**	**7 258,6**
3.	**Paxta xom ashyosini yetishtirish**	**ming tonna**	**3 104,7**	**3 337,1**	**3 800**
4	**Mahsulot ishlab chiqarish:**				
4.1	Paxta tolasi	tonna	1 023,3	1 036,9	1 114,5
4.2	Paxta kalava ipi	ming tonna	633,8	691,9	747,8
4.3	Tayyor ip gazlama	mln. kv. m.	108,9	535,5	161,2
4.4.	Trikotaj mato	ming tonna	34,4	1 184,5	49,4
4.5	Tikuv-trikotaj mahsulotlari	mln. dona	95,9	1 570,6	180,9
4.6.	Paypoq mahsulotlari	mln. juft	69,7	317,3	98,8
5.	**Ishlovchilar soni**	**kishi**	**112 169**	**152 117**	**174 654**

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, respublikamizda faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 2021 yilda jami 751,0 mln. AQSH dollari miqdorida mahsulot eksport qilingan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023 yilda 1354,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan yoki 80,33 % ga oshgan. Eksport hajmining 2023 yilda 2022 yilga nisbatan o'zgarishi atigi 0,42 foizni tashkil etishi shu bilan izohlanadiki, jahon to'qimachilik mahsulotlari bozorida paxta kalava ipi narxining pasayishi sabab bo'lgan, Chunki, hozircha paxta-to'qimachilik klasterlari eksport hajmida ushbu turdagi mahsulot ulushi salmoqlidir. Shu boisdan, kelgusida respublikamizda paxta kalava ipi eksporti hajmini keskin kamaytirish va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport hajmini oshirish rejalashtirilgan.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida uyushmasining 2021-2023 yillarda eksport hajmi va mahsulot nomenklaturasi haqidagi ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

[6]"O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

2-jadval

Paxta-to'qimachilik klasterlari eksporti dinamikasi[7]

№	Ko'rsatkichlar	Birlik	2021 y	2022 y	2023 y
1	Eksport hajmi	mln. AQSH doll.	751,0	1348,7	1 354,3
2	Eksport qilingan mahsulot turlari	birlik	225	230	241
3	Eksport qilingan mamlakatlar soni	birlik	50	53	55

3-jadval

Paxta-to'qimachilik klasterlarining mahsulot rentabelligi ko'rsatkichi o'zgarish dinamikasi[8], *ming so'm*

№	Yillar	2020 y	2021 y	2022 y	2023y	2023 yilni 2020 yilga nisbatan o'zgarishi, %
	"Asakatekstil" Mas`uliyati cheklangan jamiyat					
1.	Sotishdan tushgan yalpi foyda	15 062 322	15 720 798	30 581 588	6 816 893	45,25 %
2.	Tovar mahsuloti ning to'la tannarxi	105 889 283	148 819 213	220 636 356	341 989 509	3,23 marta
3.	Mahsulotning rentabel lik darajasi, foiz hisobida	14,22	10,56	13,86	1,99	13,99%
	"Fergana global textile" Mas`uliyati cheklangan jamiyat					
1.	Sotishdan tushgan yalpi foyda	1 837 451	133 081 474	170 958 479	61 306 883	33,3 marta
2.	Tovar mahsulotining to'la tannarxi	38 067 731	419 672 555	754 153 159	1 184 355 777	31,1 marta
3.	Mahsulot ning rentabellik darajasi, foiz hisobida	4,83	31,71	22,67	5,18	107,2%

3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020-2023 yillarda "Asakatekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatda sotishdan tushgan yalpi foyda ko'rsatkichi 54,75 % ga kamaygan va 2023 yilda 6 816 893 ming so'mni tashkil etgan. Natijada mahsulotning rentabellik darajasi ko'rsatkichi ham o'rganilayotgan davrda 12,23 % ga kamaygan. "Fergana global textile" mas'uliyati cheklangan jamiyatda esa holat ijobiy bo'lgan. Xususan, sotishdan tushgan yalpi foyda ko'rsatkichi 2023 yilda 61 306 883 ming so'mni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 33,3 martaga oshgan. Natijada mahsulotning rentabellik darajasi 2023 yilda 5,18 % ga teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2020 yilga nisbatan 107,2 % ga oshgan.

[7]"O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi ma'lumotlari.
[8]Muallif hisob-kitoblari.

Hozirga qadar "eksport salohiyati" iqtisodiy kategoriyasining mohiyati tadqiqotchilar tomonidan to'la ochib berilmaganligi va bu borada yagona ilmiy asoslangan yondashuv mavjud emasligi uni baholashda uning mezonlari va ko'rsatkichlari tizimini shakllantirishni bir qadar qiyinlashtiradi. Yetakchi mualliflarning asarlarini o'rganish asosida, paxta-to'qimachilik klasteri eksport salohiyatini baholashning quyidagi uslubiyati taklif qilindi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyati darajasini baholash beshta bosqichni nazarda tutadi.

Birinchi bosqich ko'rsatkichlar tizimining analitik bazasini tuzish hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichida korxonaning eksport salohiyatini baholashning takomillashtirilgan usuli ishlab chiqildi. Biz ushbu jarayonda asosan eksport muhitining mikrodarajasiga alohida e'tiborni qaratdik. Zeroki, eksport uchun mo'ljallangan to'qimachilik mahsulotlari aynan mikrodarajada, ya'ni ishlab chiqarish korxonalarida yaratiladi.Biz paxta-to'qimachilik klasteri infratuzilmasini optimallashtirish asosida eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashning usulini ishlab chiqish jarayonida uning tarkibiy qismlari sanalgan: korxonaning ichki salohiyati, korxonaning joriy bozordagi muvaffaqiyati va mahalliy bozor salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishni lozim topdik. Buning uchun paxta-to'qimachilik klasterlari ishlab chiqarish hamda eksport faoliyatini yaxshi biladigan yetakchi mutaxassislar va olimlardan tashkil topgan 24 kishidan iborat ekspertlar guruhi tashkil etildi. Ushbu ekspertlar guruhidan birinchi navbatda korxona eksport salohiyatini baholashning tanlangan uchta guruhining muhimligi bo'yicha vazn ko'rsatkichlarini aniqlab berish so'raldi. Ekspertlar xulosalariga ko'ra paxta-to'qimachilik klasteri eksport salohiyatining (KES) integral ko'rsatkichi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K_{kes} = 0{,}4 * K_{kis} + 0{,}27 * K_{kbm} + 0{,}33 * K_{mbs}, \qquad (1)$$

bu yerda, K_{kes} – paxta-to'qimachilik klasteri eksport salohiyati;

K_{kis} – paxta-to'qimachilik klasterining ichki salohiyati;

K_{kbm} – paxta-to'qimachilik klasterining bozordagi muvaffaqiyati;

K_{mbs} –mahalliy bozor salohiyati.

Ikkinchi navbatda respondentlardan korxonaning eksport salohiyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan taqdim etilgan 42 ta omildan eng muhimlarini tanlash so'raldi. So'rov natijasida respondentlar korxonaning eksport salohiyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan 30 ta omilni tanlab berishdi va biz tomondan ular 3 ta blokga birlashtirildi: korxonaning ichki muhitining omillari, bozor omillari, rejalashtirilgan sotish bozorining omillari.

Uchinchi bosqich koeffitsiyentlarning axborot modulini standartlashtirish va meyorlashtirish hamda ularni hisoblangan ma'lumotlar majmuasiga keltirish jarayonlaridan iborat.

To'rtinchi bosqichida o'rganilayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyatining xususiy integral koeffitsiyentlarini aniqlashdan iborat, shu jumladan, har xil turdagi investitsiyani boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash amalga oshiriladi.

Ushbu tadqiqotda paxta-to'qimachilik klasterlari strategik rivojlanishida eksport salohiyatining umumlashtirilgan real integral ko'rsatkichi ($K_{KES.real}$) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_{KES.real} = \sum_{i=1}^{n} W_i * K_i \qquad (2)$$

bu yerda, $K_{KES.real}$ – paxta-to'qimachilik klasterlari strategik rivojlanishida eksport salohiyatining umumlashtirilgan real integral ko'rsatkichi;

W_i – ekspertlar tomonidan aniqlanadigan ko'rsatkichning muhimlik darajasi;

K_i – koeffitsiyent miqdori;

n – koeffitsiyentlar soni.

Paxta-to'qimachilik klasteri eksport salohiyatining real integral qiymatini aniqlash uchun intervallar hisoblab chiqiladi (4-jadval).

4-jadval

Paxta-to'qimachilik klasteri eksport salohiyati real darajasini baholash shkalasi[9]

№	Qiymat	Korxona eksport salohiyati real darajasining mazmun tavsifi
1.	0,751–1,0	Real eksport salohiyati "yuqori" darajada
2.	0,376-0,750	Real eksport salohiyati "yaxshi" darajada
3.	0,251–0,375	Real eksport salohiyati "o'rta" darajada
4.	0,126–0,250	Real eksport salohiyati "past" darajada
5.	0,000–0,125	Real eksport salohiyati "juda past" darajada

5-jadval

2023 yilda paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyati real integral ko'rsatkichi[10]

№	Paxta-to'qimachilik klasterlari nomlanishi	Eksport salohiyati real integral ko'rsatkichi	Eksport salohiyati darajasi
1	"Saxovat Tex Cluster" MCHJ	0,3001	o'rta
2	"ABC Oqqorgon Agrocluster" MCHJ	0,2705	o'rta
3	"Buxoro Agrocluster" MCHJ	0,3185	o'rta
4	"TCT Agro cluster" MCHJ	0,3693	o'rta
5	"Asaka tekstil" MCHJ	0,4001	yaxshi
6	"Fergana global textile" MCHJ	0,4234	yaxshi

5-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2023 yilda o'rganilayotgan 6 ta paxta-to'qimachilik klasterida mavjud eksport salohiyati darajasi quyidagicha: "Saxovat Tex Cluster", "ABC Oqqorgon Agrocluster", "Buxoro Agrocluster", "TCT Agro cluster" paxta-to'qimachilik klasterlarida eksport salohiyatidan foydalanish darajasi "o'rta"

[9]Muallif ishlanmasi.

[10]Muallif hisob-kitoblari.

diapozonda bo'lsa, "Asaka tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyat MCHJ, "Fergana global textile" MCHJ paxta-to'qimachilik klasterlarida esa «yaxshi» diapozonda ekanligi aniqlandi.

Beshinchi bosqichda paxta-to'qimachilik klasteri strategik rivojlanishida eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Dissertatsiyaning **"Paxta-to'qimachilik" klasteri tarkibini optimallashtirish asosida eksport salohiyatini oshirish istiqbollari"** deb nomlangan uchinchi bobida klaster siyosatini amalga oshirishning xorij tajribasi va ularni O'zbekistonda qo'llash yo'llarini aniqlash, "paxta-to'qimachilik" klasteri infratuzilmasini optimallashtirish negizida eksport salohiyatini oshirish istiqbollarini aniqlash, "paxta-to'qimachilik" klasterlarining istiqbolda rivojlanishini prognozlash masalalari o'rganilgan.

Tadqiqot ishida respublikamizda paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 2023 hosil yilida yetishtirilgan paxta xomashyosini qayta ishlashda qo'shimcha qiymatni oshirish mezoni bo'yicha klasterlarning texnologik zanjirdagi eng samarali toifasini tanlash uchun ekonometrik modellashtirishning muqobillashtirish usulidan foydalandik.Bir birlik mahsulot turlarini ishlab chiqarishga oid ma'lumotlar 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Bir birlik paxtachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda sarflanadigan resurslar hamda qo'shimcha qiymat miqdori miqdori[11]

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar				Resurs zaxira miqdori, ming so'm
		M_2	M_3	M_4	M_5	
1.	Bir birlik mahsulotga sarflanadigan xom ashyo miqdori, ming so'm	15290	15820	16450	18090	604452000000
